



## INNOVATSION TA'LIM SHAKLLARINI AMALIYOTGA JORIY ETISH

*Jumanova Fatima Uralovna*

*Nizomiy nomidagi TDPU kafedra mudiri, p.f.n., dotsent*

*e-mail [jumanovafatima@gmail.com](mailto:jumanovafatima@gmail.com)*

*[Tel: 998006914](tel:998006914)*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada talim oluvchining ijodiy qobiliyatini o'stirish uning shaxs sifatida shakllanishini to'g'ri boshqarish bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy kompetentligini oshirishning bir qancha modellari, o'qituvchilik kasbi, pedagoglarga hos bo'lgan shaxsiy va kasbiy sifatlar va ularni amalga oshirish usullari haqida atroflicha fikr yuritilgan bo'lib, zamonaviy va innovatsion texnologiyalardan foydalangan holda bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy mahoratlarini amalga oshirish modellari haqida xulosa va tavsiyalar berilgan.

**Kalit so'zlar:** o'qituvchi, kasb, ta'lim, tizim, mahorat, bilim, malaka, ko'nikma, innovatsion, zamonaviy, model, kompetent, texnologiya, islohot, raqobat, muhit, yondashuv, tajriba, pedagog, standart, shaxsiy, kasbiy, sifat, metod.

**Аннотация:** В данной статье подробно рассмотрено несколько моделей повышения профессиональной компетентности будущих учителей, педагогической профессии, личностных и профессиональных качеств педагогов и методы их реализации с использованием современных и инновационных технологий, даны выводы и рекомендации о моделях реализации профессиональных навыков будущих учителей.

**Ключевые слова:** педагог, профессия, навык, знание, компетентность, умение, инновационный, современный, модельный, компетентный, технология, реформа, конкуренция, среда, подход, опыт, педагог, стандарт, личностный, профессиональный, качество, метод.

**Abstract:** In this article, several models of improving the professional competence of future teachers, the teaching profession, the personal and professional qualities of pedagogues and the methods of their implementation are discussed in detail, using modern and innovative technologies. conclusions and recommendations are given about the models of implementation of professional skills of future teachers.

**Keywords:** teacher, profession, skill, knowledge, competence, skill, innovative, modern, model, competent, technology, reform, competition,



environment, approach, experience, pedagogue, standard, personal, professional, quality, method.

Zamonaviy sharoitda ta'lim oluvchilarning o'quv-bilish faolligini kuchaytirish, ta'lim sifatini oshirish va samaradorlikni taminlash maqsadida innovatsion ta'lim shakllaridan foydalanishga o'tilmoqda. Innovatsion ta'lim shakllarini amaliyotga joriy etish uchun o'ziga xos tashkiliy-pedagogik shart-sharoitlar yaratilishi talab etiladi, ya'ni pedagog va ta'lim oluvchilarning tegishli tayyorgarlik darajasi, kreativ yondashish, ta'limni tashkil etish va boshqarishning turli xil metodlari va vositalari va boshqa shakllari. Bugungi kunda amaliy o'yinlar, muammoli ta'lim, interfaol ta'lim, ta'limning modul-kredit tizimi, masofaviy ta'lim, blended learning Munok (aralash o'qitish), mahorat darslari kabilar ta'limning innovatsion shakllari sifatida e'tirof etilmoqda.

Quyida ba'zi innovatsion ta'lim shakllarining mazmun-mohiyati haqida fikr yuritiladi.

1. Pedagogik o'yinlar. O'yin jamiyatdagi ijtimoiy munosabatlarning bolalar tomonidan taqlid etilib o'zlashtirilishi. Amaliy o'yin ma'lum bir amaliy hatti-harakatlarning tashkil etilishini taqlid qilishga imkon beruvchi o'yinlar. Pedagogik amaliyotda o'yinlarning xilma-xil turlaridan foydalanish mumkin. Ular umumiy tarzda o'yin texnologiyalari deb ataladi.

O'yin texnologiyalari o'ziga xos xususiyatlarga egaligi bilan ajralib turadi:

- 1) ta'lim oluvchilarning xohishiga ko'ra tanlangan erkin faoliyat ekanligi;
- 2) bu faoliyat ijodiylik va faollikka asoslanganligi;
- 3) faoliyatning hissiy jo'shqinligi, raqobatga asoslanganligi,
- 4) bevosita va bilvosita o'rnatiladigan qoidalarga amal qilinishi.

Olimlar tomonidan pedagogik o'yinlarning turli mezonlarga asoslangan bir necha tasniflari ishlab chiqilgan. Shulardan biri G.K. Selevko tasnifi hisoblanadi. Bu tasnifga ko'ra pedagogik o'yinlarning quyidagi guruhlari va turlari farqlanadi:

1) o'yin faoliyati mohiyatiga ko'ra: jismoniy, aqliy, mehnat, ijtimoiy va psixologik o'yinlar;

2) pedagogik jarayonning tabiatiga ko'ra: o'rgatuvchi, mashq qildruvchi nazorat qiluvchi, ta'limiy, tarbiyaviy, rivojlantiruvchi, produktiv, reproduktiv, ijodiy, muloqotli, tashxislovchi, kasbga yo'llovchi psixologik o'yinlar.

3) o'yin o'tkazilishi metodikasiga ko'ra: didaktik, mavzuli, rolli, ishga aloqador, taqlidiy, dabdabali o'yinlar;



4) fan sohasiga ko'ra: matematik, biologik, geografik, ekologik, kimyoviy, fizik, musiqiy, badiiy, texnik, texnologik, jismoniy, sport, harbiy, ijtimoiy, iqtisodiy, boshqaruv, tijoriy o'yinlar;

5) o'yin muhitiga ko'ra: ko'rgazmali, ko'rgazmasiz, stol, xona, ko'cha, kompyuter, televizion, texnik va shunga o'xshash kabi o'yinlar.

Yuqorida keltirilgan o'yin turlaridan dars va darsdan tashqari mashg'ulotlarning tarkibiy qismi sifatida samarali foydalanish mumkinki, bu o'qituvchining pedagogik tajribasi va maxoratiga bevosita bog'liqdir.

O'yinlardan foydalanishda ularning quyidagi tarkibiy tuzilmasini inobatga olish talab etiladi:

- 1) o'yinning maqsadi;
- 2) o'yinning vazifasi;
- 3) o'rganiladigan masalalar tavsifi;
- 4) o'yin vaziyati tavsiloti;
- 5) ishtirokchilar tabiati.

O'yin texnologiyalarini ishlab chiqish va o'tkazishda quyidagilar hisobga olinadi:

- 1) guruhlarni shakllantirish;
- 2) o'yin maqsadini ifodalash;
- 3) muammoli vaziyatni vujudga keltirish;
- 4) rollarni taqsimlash;
- 5) o'yin tartibi va davom ettirish vaqtini belgilash;
- 6) o'yinga oid barcha materiallar to'plamini tarqatish ;
- 7) zaruriyatga ko'ra maslaxatlar berib boorish.

#### **O'yinni tashkil etish va o'tkazish bosqichlari:**

1) tayyorgarlik bosqichi: o'yinni loyihalash (ssenariysi va yo'riqnomasini ishlab chiqish, moddiy ashyolarni tayyorlash, guruhlarni Shakllantirish) va o'yinni boshlash (rollarni taqsimlash, maqsadlarni tushuntirish, qoidalar va vaqtni belgilash);

2) o'yin bosqichi: guruhlarning topshiriq ustida ishlashi (manbalar bilan ishlash) va guruxlararo munozara (guruxlarning manba natijalarni himoya qilishi, ekspertlar faoliyati);

3) tahlil bosqichi: jamoa munozarasi (o'yinni yakunlash, tahlil baxolash, xulosa va umumlashtirish, tavsiyalar berish).

Interfaol ta'lim texnologiyalari - ta'lim oluvchilarning bilim, ko'nikma, malaka, kompetensiya va boshqa axloqiy-madaniy fazilatlarini o'zlashtirishi



borasidagi o‘zaro hatti-harakatlarni, munosabatlarni ob’ektiv, barcha imkoniyatlardan foydalangan holda tashkil etishga asoslangan ta’lim.

Interfaol ta’lim texnologiyalari ta’lim oluvchilar uchun quyidagi imkoniyatlarni ochib beradi.


- 1) guruh yoki jamoa bilan hamkorlikda ishlash;
- 2) tengdoshlari orasida o‘z g‘oyalarini erkin bayon qilish, bilimlarini hech qanday psixologik to‘siqlarsiz namoyish etish;
- 3) muammoni hal qilishga ijodiy yondashish;
- 4) guruh yoki jamoadoshlari bilan psixologik yaqinlikka erishish;
- 5) o‘zining ichki imkoniyati va qobiliyatlarini to‘liq namoyon qilish;
- 6) fikrlash, fikrlarini umumlashtirish va eng muhimlarini saralash;
- 7) o‘z faoliyatini nazorat qilish va mustaqil baholash;
- 8) o‘z imkoniyatlari va kuchiga ishonch hosil qilish;
- 9) turli vaziyatlarda harakatlanish va murakkab vaziyatlardan chiqa olish ko‘nikmalarini o‘zlashtirish.

Bugungi kunda pedagogik amaliyotda interfaol ta’limni tashkil etishda quyidagi eng ommaviy texnologiyalardan foydalanilmoqda.

1. Interfaol metodlar – o‘qituvchi va o‘quvchi o‘rtasida suhbat yoki dialog rejimidagi o‘zaro munosabatlarni nazarda tutuvchi metodlar: "Keys-stadi", "Blis-so‘rov", "Modellashtirish", "Ijodiy ish", "Munosabat", "Reja", "Suhbat".

2. Strategiyalar – yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan barcha holatlarda hatti-harakatlarning to‘liq rejasi “Aqliy hujum”, “Bumerang”, “Galereya”, zig-zag”, "Zinama-zina", "Muzyorar", "Rotatsiya", "T- jadval"

3. Grafik organayzerlar - ma’lumotlarni ko‘rish orqali to‘plash, bog‘lash va taqdim etish imkonini beradigan vosita yoki tuzilmalar: "Balik skeleti", "BBB", "Konseptual jadval", "Venn diagrammasi", "Insert", "Klaster", "Nima uchun?", "Qanday?" va boshqalar.





### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmoni // O‘zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari to‘plami. –T., 2017.
2. Muslimov N.A. va boshqalar. Kasb ta’limi o‘qituvchilarining kasbiy kompetentligini shakllantirish texnologiyasi // Monografiya. –T.: “Fan va texnologiya” nashriyoti. 2013.
3. Mannonov J.A. Innovatsion yondashuv asosida bo‘lajak kasb ta’limi o‘qituvchilarining metodik kompetentligini rivojlantirish texnologiyalari: ped.f.f.doktori ilmiy darajasini olish uchun yozilgan diss. avtoreferati. –T.: 2020.
4. Shodiyeva M.J. Boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari malakasini oshirish tizimining o‘quv-metodik ta’minotini takomillashtirish: pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori diss. (PhD). –T.: 2019.
5. F.Jumanova, S.Avazova, G.Jabborova, U.Xusniddinov. “Umumiy pedagogika asoslari” o‘quv uslubiy qo‘llanma, Chirchiq-2020
6. Yakubova, Z. Z. (2023). NATIONAL VALUES OF PRESCHOOL CHILDREN BASICALLY FORMING EDUCATIONAL AND MORAL QUALITIES. *European International Journal of Pedagogics*, 3(01), 51-55.
7. Zikirovna, Y. Z. (2023, February). EDUCATION OF PRESCHOOL CHILDREN IN THE SPIRIT OF NATIONAL TRADITIONS. In *Conference Zone* (pp. 257-262).